

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI

QO‘CHQAROV AVAZJON ASQAROVICH

**TIBBIY TA‘LIM TALABALARINI KASBIY FAOLIYATGA
TAYYORLASHDA KREATIVLIK QOBILIYATLARINI
RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI
(Dermatovenerologiya fanini o‘qitish misolida)**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tibbiyot) (pedagogika fanlari)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Qo‘chqarov Avazjon Asqarovich

Tibbiy ta’lim talabalarini kabiyl faoliyatga tayyorlashda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasi (“Dermatovenerologiya” fanini o‘qitish misolida) 5

Кучкаров Авазжон Аскарлович

Технология развития творческих способностей студентов-медиков при подготовке к профессиональной деятельности (на примере преподавания “Дерматовенерология”) 21

Kochkarov Avazjon Askarovich

The technology of developing creativity abilities in preparing medical students for such activities (as an example of teaching the science of “Dermatovenerology”) 41

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI

QO‘CHQAROV AVAZJON ASQAROVICH

**TIBBIY TA‘LIM TALABALARINI KASBIY FAOLIYATGA
TAYYORLASHDA KREATIVLIK QOBILIYATLARINI
RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI
(Dermatovenerologiya fanini o‘qitish misolida)**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tibbiyot) (pedagogika fanlari)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Ped4500 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fjsti.uz) hamda “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sidikov Akmal Abdikaxarovich
tibbiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kadirova Munira Rasulovna
pedagogika fanlari doktori (DSc),
professor

Ibragimova Nargiza Sayfutdinovna
tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi
Urganch filiali

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 04/30.09.2020.Tib.122.01 raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2024 yil “___” _____ soat ___ da majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 150100, Farg‘ona sh., Turon ko‘chasi, 2 uy. Tel.: +998(95) 202-23-45; faks: +998(95) 202-23-45; e-mail: info@fjsti.uz.

Dissertatsiya bilan Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg‘ona sh., Turon ko‘chasi, 2 uy. Tel.: +998(95) 202-23-45; faks: +998(95) 202-23-45; e-mail: info@fjsti.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil «___» _____ da _____ - raqamli reestr bayonnomasi).

N.O. Axmadaliyeva

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
raisi, tibbiyot fanlari doktori,
professor

M.D. Ashurova

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, tibbiyot fanlari nomzodi,
dotsent

N.Sh. Erkaboyeva

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda bugungi kun tibbiy ta'limda zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan yangi talablar qo'ymoqda. Bugun dunyoda shifokor deontologiyasi va uning kreativligini rivojlantirishga bag'ishlangan taqqiqotlar amalga oshirilmoqda. AQSH dagi "Salomatlik pedagogikasi", "Tibbiy ta'lim bo'yicha Jahon Federatsiyasining Edinburg Deklaratsiyasi", "Tibbiy axloqning xalqaro kodekslari"da tibbiy ta'limni isloh qilish tibbiyotda talabalarni o'quv jarayoniga yo'naltirishda kreativligini rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimini yo'lga qo'yishni taqozo etmoqda. Tibbiy ta'limda klinik fanlarni o'qitishda talabalarning kreativ hamda tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirish masalalari dolzarblik kasb etmoqda.

Jahon tibbiy ta'lim tizimida ham bugungi kunda bo'lajak shifokorlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning kreativligini rivojlantirishga qaratilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotlar YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha xalqaro ta'lim konsepsiyasida, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan amalga oshirilayotgan xalqaro loyihalar va seminar – treninglar, konferensiyalar, vebinarlarda e'tirof etilmoqda. Shuningdek, bo'lajak shifokorlarning o'quv jarayonida faolligini oshirishga yo'naltirilgan hamda ularni kreativligini rivojlantirishga qaratilgan o'quv qo'llanmalar, elektron resurslarni takomillashtirish katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Mamlakatimizda tibbiy ta'limni isloh qilish va uni rivojlantirishda xalqaro standartlarga mos keluvchi o'quv dasturlari bilan muvofiqlashtirish tibbiy ta'lim tizimini takomillashtirishga asos bo'ldi. Bugungi kunda mamlakatimizda dasturiy vositalar orqali o'quv jarayonini modellashtirish, raqamlashtirish tibbiy ta'lim amaliyotiga joriy etish, amaliyot va nazariyaning integratsiyasiga katta e'tibor qaratilmoqda. "Oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish"¹ ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu borada tibbiy ta'limni zamon talablari asosida tashkillashtirish, o'quv jarayonini tashkiliy – metodik modelini yaratish hamda uni tibbiy ta'lim amaliyotiga tadbiiq etish va shu orqali talabalarni kreativligini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 6-maydagi PQ-4310-son "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm – fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni, - T.: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887 – son.

islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsion ish muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'daniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz pedagog-psixolog olimlaridan G.I.Ibragimova, Sh.S.Sharipov, M.H.Usmonboyeva, Z.T.Nishonova, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, B.R.Qodirov, A.Aliev, B.Adizov, N.A.Bekmuratova, L.V.Vaxidova, E.G.G'oziyev, K.A.Zoyirov, B.M.Mirzaaxmedov, S.A.Kaldibekova, M.G.Davletshinlar aynan kreativ qobiliyatni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan, lekin tibbiyot oliy o'quv yurtlarida talabalarni kasbiy kompetentligini metodik takomillashtirish bo'yicha M.R.Kadirova, tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarida pedagogik muloqot vositasida kasbiy tafakkurni rivojlantirish, tibbiyot kollejlari o'quvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirish masalalari bilan, G.N.Kurbanova, E.Yu.Rahimova, tibbiyot instituti talabalarini o'quv faoliyati motivatsiyasini tashxis qilish masalalari bilan psixolog olim G.D.Kuldasheva, bo'lajak shifokorlarda kasbiy – ma'naviy fazilatlarini tarbiyalash tizimini rivojlantirish masalalari bilan N.D.Axmedovalar, Sh.P.Ergasheva tibbiy ta'lim talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot olib borgan.

MDH mamlakatlarida tadqiqot olib borgan pedagog – psixolog olimlardan V.L.Muravev, N.F.Vishnyakova, N.M.Gnatko, V.N.Drujinin, T.S.Mamontova, I.I.Tomilova, Y.Y.Tunik, L.Proxorova, V.A.Slastenin, M.A.Xolodnaya, T.F.Bashina, Y.P.Ilin, T.A.Barisheva, L.S.Vigotskiy, V.P.Zinchenko, Y.A.Ponomarev, I.G.Kanevskaya, D.M.Komskiy, V.T.Kudryavsev, V.Y.Lesher, V.G.Razumovskiy, Y.I.Rojkova, N.V.Savchuk, M.N.Skatkin, V.S.Shubinskiy, V.I.Juravlev, D.B.Elkonin, V.A.Kan-Kalik, Y.S.Stolyarov kabilarning ilmiy izlanishlarida o'quvchilar ijodkorlik faoliyati mazmuni va o'quvchilarni o'quv jarayoniga tayyorlashda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari o'rganilgan.

Tibbiyot hodimlarini kasbiy fazilatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan tadqiqotlardan A.A.Petrovning umumiy amaliyot shifokorining etnopedagogik ma'daniyatini o'rganish, O.V.Denisovning shifokor kasbiy identivligining psixologik mexanizmlarini o'rganish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar o'rganilgan.

Xorijlik olimlardan M.A.Wollash, J.R.Guilford, N.A.Kogan, Dreaueu Ratti, S.R.Rogers, Y.R.Torrance, Simrson Ray M., X.Y.Tryk, Soon Ye Hwanglar tomonidan kreativlik tushunchasi, o'quvchi-yoshlarda kreativ yondashuvni

shakllantirish va ijodkorlikka yo'naltirish muammolari bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Olib borilgan tadqiqotlar, tahlillar shuni ko'rsatadiki, tibbiyot oliy o'quv yurti talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda hamda dermatovenerologiya fanini o'qitish jarayonida ularning kreativ qobilyatlarini rivojlantirish masalalari muammo sifatida o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti ilmiy – tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Zamonaviy pedagogikani rivojlantirishda fanlararo integrsion jarayonlarni tashkil etishning istiqbollari” mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tibbiy ta'lim talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativlik qobilyatini rivojlantirish bo'yicha uslubiy va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tibbiy ta'lim talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ qobilyatlarini rivojlantirish jarayonining nazariy – metodologik asoslarini yoritish;

tibbiy ta'lim talabalarini kreativ qobilyatlarini rivojlantirishda dermatovenerologiya fanini o'qitishda hamda malakaviy amaliyotlar orqali rivojlantirishning shakl va metodlarini shakllanganlik mezonlarini aniqlashtirish;

zamonaviy ta'lim jarayonida bo'lajak tibbiyot xodimlarini kreativ qobilyatlarini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

tibbiy ta'lim talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ qobilyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv qo'llanmalar va amaliy loyihalar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida tibbiy ta'lim talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ qobilyatlarini rivojlantirish jarayonlari olingan.

Tadqiqotning predmetini tibbiy ta'limda talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ qobilyatlarini rivojlantirish tizimini shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy tahliliy o'rganish, modellashtirish, anketa so'rovlari, testlar, kuzatuv, pedagogik kuzatish, suhbat, integral diagnostika, sosiometriya, pedagogik eksperiment, sotsiologik so'rovlar, kontent tahlil, intervyu, matematik-statistik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tibbiy ta'lim talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida tibbiy prognozlashning tibbiy ta'limdagi integratsiyasi hamda innovatsion ta'lim muhitidagi didaktik imkoniyatlarining rekursiv algoritmi individual yondashuvlarning barqarorligiga emperik jihatdan ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

tibbiy ta'lim talabalarining strategik, metodik, refleksiyaning rivojlantirish kompetensiyalari klinik fanlarni o'zlashtirishdagi implemetatsion strategiyalar va davolashning zamonaviy diagnostik tizimining kategoriyalari o'qituvchi va talaba faoliyatining tartiblangan algaritimini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan;

tibbiy ta'lim talabalarini kasbiy faoliyatga yo'naltirishda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoni dermatovenerologiya fanini o'qitishda talabalarning loyihalash elementlarini o'rgatishning algaritimlik bosqichlari klassterli yondashuvlarini virtual ta'limda qo'llash asosida takomillashtirilgan;

tibbiy ta'limda dermatovenerologiya fanini o'qitishda talabalarni kreativ faolligini, tizimli samaradorligini aniqlash ko'rsatkichlari va baholash mezonlari integral ma'ruzalarni didaktik jihatdan tashkil qilishning kognitiv, motivatsion maqsadlari tibbiy faoliyatga doir komponentlarini gorizonta va vertikal ta'sir ko'rsatish xususiyatlari va izchillik tamoyillariga ko'ra takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 4-iyundagi 121-sonli buyrug'iga asosan 5510100 – Davolash ishi yo'nalishi talabalariga Terining o'lka kasalliklari nomli o'quv qo'llanmasi ishlab chiqilgan;

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Andijon davlat tibbiyot instituti rektorining 2023-yil 1-maydagi 280-SH – sonli buyrug'iga asosan 5510100 – Davolash ishi, 5510200- Pediatriya yo'nalishi talabalariga Teri kasalliklarini rivojlantirishda ichki a'zo va asab tizimi patologiyasining ahamiyati nomli o'quv qo'llanmasi ishlab chiqilgan;

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 7-dekabrda 648-sonli buyrug'iga asosan 5510100 – Davolash ishi, Pediatriya yo'nalishi talabalariga Tanosil kasalliklari nomli o'quv qo'llanmasi ishlab chiqilgan;

“Teri kasalliklari” fanidan elektron o'quv qo'llanmasi (DGU 26909) barcha tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalariga tadbiq etilgan;

tibbiy ta'lim talabalarini kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish samaradorligini baholash uchun talabalarning kasbiy faoliyati motivatsiyasi sabablarini diagnostik metodikasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llangan yondashuv va usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, empirik o'rganishlar asosida keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tibbiy ta'lim talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan metodologik yondashuvlar hamda pedagogik shart-sharoitlar takomillashtirilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar respublika tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining bakalavr ta'lim yo'nalishlarida tibbiy ta'lim talabalarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish sifatini yangi bosqichiga olib chiqish imkonini bergani bilan ishlab chiqilgan o'quv qo'llanmalaridan, ilmiy-amaliy tavsiyalardan tibbiy ta'lim muassasasi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda tibbiy ta'lim muassasalarining barcha yo'nalishi talabalarini o'qitish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan belgilandi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tibbiy ta'lim talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha olingan amaliy natijalar asosida:

tibbiy ta'lim talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida tibbiy prognozlashning tibbiy ta'limdagi integratsiyasi hamda innovatsion ta'lim muhitidagi didaktik imkoniyatlarining rekursiv algoritmi "Terining o'lka kassalliklari" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyundagi 233-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan ruxsatnomasi). Natijada tibbiyot oliy o'quv yurtlarida talabalarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mavzular mazmuni takomillashtirilgan;

tibbiy ta'lim talabalarining strategik, metodik, refleksiyaning rivojlantirish kompetensiyalari klinik fanlarni o'zlashtirishdagi implemetatsion strategiyalar va davolashning zamonaviy diagnostik tizimining kategoriyalari "Terining o'lka kassalliklari" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyundagi 233-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan ruxsatnomasi). Natijada tibbiyot oliy o'quv yurtlarining davolash ishi yo'nalishi talabalarini kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan keyslardan foydalanish imkoniyatlari oshgan;

tibbiy ta'lim talabalarini kasbiy faoliyatga yo'naltirishda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoni dermatovenerologiya fanini o'qitishda talabalarning loyihalash elementlarini o'rgatishning algaritimlik bosqichlari tibbiyot oliy o'quv yurtlarining o'quv mazmuniga "Tanosil kasalliklari" nomli o'quv qo'llanmasiga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 7-dekabrda 648-sonli buyrug'iga asosan nashr ruxsatnomasi). Natijada tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalarining kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan mavzular mazmunini o'rganishning shart-sharoitlari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqotining natijalari, jumladan, 2 ta respublika, 2 ta xalqaro ilmiy- amaliy konferensiyada muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, 3 ta o'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 ta respublika 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 129 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, ob’ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning «**Tibbiy ta’lim talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ qobilyatlarini rivojlantirishning ilmiy – metodik asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida psixologik-pedagogik adabiyotlarda talabalarining kreativ qobilyatlari, kasbiy faoliyatlarini rivojlantirish hamda boshqarish mohiyatining tarixiy va zamonaviy xususiyatlari; tibbiy ta’lim jarayonida kasbiy faoliyat muammolari, tibbiy ta’lim talabalarini kreativ qobilyatlarini rivojlanganlik darajasi; tibbiy ta’lim talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni pedagogik hodisa sifatida tibbiy ta’lim talabalarini kreativ qobilyatlarini rivojlantirishni boshqarish tarkibi va mazmuni haqida yoritilgan.

Bugungi kunda inson faoliyatining asosiy yo‘nalishlari shu faoliyatdan ko‘zda tutilgan maqsadlarni to‘liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, ta’limning yangi turini tadbiiq etishga qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan tibbiy ta’lim sohasida ham so‘nggi yillarda besh yilda tibbiy ta’limga pedagogikaning yangi sohalari, ya’ni ixtisosliklarga xos bo‘lgan sohalari kirib kelmoqda. Bugungi kunda tibbiy ta’lim jarayonini yosh avlodga berishda keksa avlod tomonidan yangi bilimlarni o‘rgatish hamda o‘z bilim va tajribalarini o‘sib kelayotgan avlodga o‘rgatishdan iborat ekanligini anglagan holda, bu jarayonda, asosan, inson hayoti uchun zarur axborotlarni avloddan avlodga yetkazish orqali amalga oshiriladi.

Tibbiy ta’limda “Shaxs” muammosini umumiy ilmiy muammo sifatida ilgari surish tibbiy ta’lim sohasidagi munosabatlarni tubdan o‘zgartiradi, ular orasida bugun tibbiyotga kirib kelayotgan tibbiyot pedagogikasini alohida ta’kidlash zarur. Tibbiy ta’lim tizimida “Tibbiyot pedagogikasi” mazmunini M.Kadirova tadqiq etgan bo‘lib, u tadqiqotlari davomida Tibbiyot pedagogikasiga quydagicha ta’rif beradi: Tibbiyot pedagogikasi - bo‘lajak shifokorlarni o‘qitish jarayonida mutaxassislik fanlarining integratsiyasi orqali noan’anaviy usullarini faol ravishda ishlab chiqayotgan ilmiy bilim va amaliyot sohasidir deb tadqiq etgan.

Tibbiy ta’lim - bu talabalarni tibbiy ta’limga doir bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishdir. Tibbiy ta’limda pedagoglarni ta’lim berish jarayoniga e’tibor qaratadigan bo‘lsak bu bor imkoniyatlarni namoyish qilish, mavjud bilimlarni shakllantirish kabi tushunchalarni anglatishi mumkin. Ko‘p tillarda ta’lim tushunchasi “tasvir”ning tub morfemasiga ega emas lekin mazmunan yetarlicha konseptual jihatdan keng. Demak, nemis tilida “ta’lim” tushunchasi ma’no jihatdan ma’rifat, shakllanish, tashkil etish kabi tushunchalar bilan izohlanadi.

Tadqiqotimiz davomida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish komponentlarini tahlil qildik. (1-rasm)



1-rasm. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish komponentlari

K.D.Ushinskiy o'zining tadqiqotlarida mahoratli shifokor va tajribali o'qituvchi faoliyatida pedagogika va tibbiyot o'rtasidagi o'xshashlikni tahlil qiladi. "Bemorni davolashda shifokor tabiatga yordam beradi, xuddi shu tarzda ustoz talabaga ta'lim olishda uchraydigan qiyinchiliklarni anglashga yordam berishi kerak, o'rgatish uchun emas balki o'rganishi uchun yordam berishi kerak" deya ta'kidlaydi. K.D.Ushinskiy "agar pedagogika insonni har tomonlama tarbiyalamoqchi bo'lsa, u avval uni har tomonlama bilishi kerak" deydi.

Tibbiy ta'limda kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari deb quydagilarni belgiladik: **Birinchi**dan, uning mutaxassislik xususiyatiga ega ekanligida va kasbiy faoliyatning mazmuni bilan o'z egallagan sohasiga kirisha olishida. Bundan tashqari, deyarli bo'lajak shifokor hech bir ijtimoiy faoliyati uning ta'siridan tashqarida bo'lmaydi. O'zi yolg'iz qolganda ham, inson o'zining kasbiy faoliyatning ta'sirida o'ylaydi va harakat qiladi. **Ikkinchi**dan, bo'lajak shifokorning kasbiy faoliyati uning ongi, hissi, irodasida ham namoyon bo'lib, uni o'z sohasiga doir qarorlar qabul qilishiga ta'sir ko'rsatadi. **Uchinchi**dan, kasbiy faoliyat shaxsning dunyoqarash darajasiga, shaxsiy javobgarlik hissigacha bevosita bog'liq.

Bugungi kunda tibbiy ta'lim talabalarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu orqali ularning ichki motivatsiyasini aniqlash va

kasbiy faoliyatga yo'naltirishni talab etadi. Pedagogik jarayon talabalarning individual xususiyatlariga ko'ra tabiiy iqtidorini ro'yobga chiqarish va rivojlantirish, pirovardida barkamol shaxsni tarbiyalashni maqsad qiladi. Talabalarning o'zigagina xos bo'lgan iqtidorini aniqlamay uni biror narsaga majburlab o'rgatib bo'lmaydi. Uning tug'ma iste'dodini boshqalarga qaraganda kuchliroq rivojlanganligi unga biror bir kashfiyotni qilishiga imkon yaratadi. Shuning uchun ham talabalarning kreativ qobiliyatlarini kashf etish va uni rivojlanishi uchun imkoniyat yaratish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Kreativ qobiliyatlarning mohiyati evristik ta'limning psixologik asoslari bo'lib, insonning ijodkorlik tabiati haqidagi tasavvurlar, samarali ta'limiy faoliyatini aniqlovchi va sabab bo'luvchi uning shaxsiy xislatlari hisoblanadi. Berilgan masala yuzasidan mazkur sohadagi psixolog va pedagoglar ishlarini tahlil qilish muayyan darajada talabalar ijodkorligini namoyon qilishning psixologik-pedagogik yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Ilmiy manbalarda kreativlik quydagicha talqin qilinadi: Kreativlik - bu har tomonlama fikrlash, his qilish va harakat qilishga bo'lgan potensial layoqat hisoblanadi. "U shaxsning muammoli vaziyatlardan tafakkuri orqali, takrorlanmas yo'l bilan chiqib ketish, unga ijodiylik bilan yondasha olish qobiliyati hisoblanadi".

A.Arifjanova oliy ta'lim muassasalari pedagoglari tarkibining kreativ salohiyatini rivojlantirish bilan bog'liqlikda kreativlik tushunchasining mohiyatini quyidagi tarzda bayon etgan: "maqbul imkoniyatlarni safarbar etish orqali, shaxsni muammoni qabul qilish, yangi, noodatiy mahsulni yaratish qobiliyati". G.Ibragimovanning fikricha, kreativlik - shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlarlari bilan bog'liq ko'nikmalar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Kreativlik o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyaning qamrab oladi deb tadqiq etganlar.

Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotlarda kreativlikni tibbiyotning nuqtai nazaridan tadqiq etdik. Kreativlik - o'zida o'z kasbiga bog'liq bo'lgan qobiliyat va elementlarni to'la jamlagan integrativ xarakter kasb etuvchi qobiliyatdir.

Kreativ sifatlar tibbiy ta'lim jarayonida talabalar tomonidan ijodkorlik mahsulini yaratish sharoitini ta'minlaydi. Bular: emotsional-obrazli sifatlar: ilhomlanish, ijodiy holatlarda emotsional ko'tarinkilik, obrazlilik, tasavvur, yangilikni sezish, izlanish bashorati; ixtirochilik tashabbuskorlik o'ylab topishga tayyorgarlik ko'rish; fikrlarni genepatsiya qilish qobiliyati; g'oyalarni turli xilligini egallash ta'lim muassasasida, oilada, ijtimoiy muhitda odob normalari bilan mos kelishi; o'rganilayotgan ob'ekt bilan suhbat olib borish malakasi, o'rganish metodlarini tanlash, tuzilishi va tarkibini aniqlay olish malakasi, yondosh ob'ektlar o'rtasida bog'liqlikni aniqlay olish.

Xulosa qilganda, kreativlik yagona bo'lmagan qobiliyat hisoblanishi, inson tasavvuri va fantaziyasini kognitiv faoliyat bilan uyg'unlashishi asosida yangicha g'oya, faoliyat va yondashuvning shakllanishiga aytiladi. Shunday ekan, shaxs faoliyatining samaradorligi uning ijodiy qobiliyatlari va kreativlik ko'nikmalariga bog'liqligi kelib chiqadi.

Dissertatsiyaning “**Dermatovenerologiya fanini o‘qitishda talabalarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish tizimi**” deb nomlangan ikkinchi bobida tibbiy ta’limda dermatovenerologiya fanini o‘qitish jarayonida talabalarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish komponentlari; tibbiy ta’lim talabalarida kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish me’zonlari va darajalari; zamonaviy ta’lim texnologiyalari yordamida tibbiy ta’lim talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasi va modeli kabi masalalar yoritilgan.

Tibbiy ta’lim talabalarida kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida zamonaviy texnologiyalarni dermatovenerologiya fanini o‘qitish jarayoniga tatbiq etish hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda tibbiy ta’lim mazmunini boyitish tibbiy ta’lim talabalarida o‘zaro xurmat, o‘z-o‘zini tarbiyalash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Klinik darslarni rejalashtirishda talabalarda tanqidiy, o‘zgacha har tomonlama fikrlash, tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga majbur qilish ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag‘batlantirishda asosiy omil kreativlik sanaladi.

Talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish quyidagi holatlarni kafolatlashi zarur: talabalar tomonidan klinik fanlarini past-yomon o‘zlashtirayotgan va ularni o‘rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalarni e’tiborini fan asoslarini o‘zlashtirishga faol jalb etish; talabalarga kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish orqali mashg‘ulotlarda ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.

Dermatovenerologiya darslarida talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirishda quyidagi holatlar ta’lim jarayonida samaradorlikka erishishni kafolatlaydi: talabalarda kreativ tafakkurni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish; talabalarda kreativ tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish; talabalarning kreativ tafakkurini shakllantirishga yordam beruvchi shakl, usul va vositalarni ta’lim jarayoniga samarali tatbiq etish; dermatovenerologiya darslari fundamental hamda klinik fanlar bilan fanlararo aloqadorlikni ta’minlash; talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga imkon beruvchi shart-sharoitlarni yaratish.

Tibbiy ta’limda *dermatovenerologiya fanini o‘qitishda talabalarning kreativ qobiliyatlarini* rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari hamda tibbiy ta’limda yuzaga keltirish xususiyatlari va imkoniyatlarini aniqlanishi tadqiqot vazifalari bilan muvofiqlikda tibbiy ta’limda talabalarga dermatovenerologiya fanini o‘qitishda ularning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning modelini nazariy asoslash hamda pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish zaruratini keltirib chiqardi.

Tibbiy ta’lim jarayonida o‘quv jarayonida talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari hamda tibbiy ta’limda yuzaga keltirish xususiyatlari va imkoniyatlarini aniqlanishi tadqiqot vazifalari bilan

dermatovenerologiya fanini o'qitishda talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning modelini nazariy asoslash va ishlab chiqilishiga turtki berdi.

Tibbiy ta'limda dermatovenerologiya fanini o'qitishda talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish modeli bir qator olimlarning tadqiqotlari natijasida takomillashtirildi jumladan M.Kadirova, N.Axmedova, Sh.Ergasheva, I.Denisov, N.Kudryavaya, N.Lakosina, I.Siluyanova, N.Friedman, R. Ganellen lar tadqiqotlari doirasida takomillashtirilgan.

Tizimli yondashuv dermatovenerologiya fanini o'qitishda talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini yaxlit tizim sifatida belgilaydi. *Aksiologik yondashuvdan* foydalanish tibbiy ta'limda talabalarning o'z kasbi qadriyatlariga, an'analariga munosabatni shakllantiradi. Tibbiy ta'limda talabalarga dermatovenerologiya fanini o'qitishga qaratilgan pedagogik jarayonni tashkil etish uchun *shaxsiy-faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv* shaxsiy va jamiyat maqsadlari uyg'unligi ta'limning asosiy vazifasini bajaradi. *Kompetentlik yondashuvni* qo'llash kasbiy faoliyatning ijtimoiy kompetensiyalar sifatida shakllantirishni nazarda tutadi.

Tibbiy ta'lim talabalarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning bosqichma-bosqich jarayonining aks ettirilishi hisoblanadi. Ushbu model blokining *1-2-bosqichida* tibbiyot institutiga o'qishga kirishda, o'quv jarayonini tashkil qilishda hamda kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari "Davolash ishi" mutaxassisligi misolida o'rganib chiqildi. O'quv rejalarni tahlil qilish jarayonida kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy jarayoni ijtimoiy-gumanitar fanlar, fundamental fanlar sanaladi.

Olib borilgan tadqiqotimiz doirasida tibbiy ta'limda talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga dermatovenerologiya fani hamda yondosh fanlar bilan integratsiyasiga urg'u berildi.(2-rasm)

Bo'lajak shifokorlarda kasbiy kompetentlikni rivojlanganligining yuqorida qayd etilgan me'zonlari va ko'rsatkichlarini hisobga olgan malaka talabida kasbiy kompetentlikni rivojlanganligining darajalari past, o'rta va yuqori deb belgilandi.


Yuqori daraja - kasbiy faoliyatiga doir bilimlarni chuqur egallagan, kasbiy faoliyatida ulardan foydalanishga intiladi, o'zini o'zi adekvat baholaydi, kasbiy kompetentligini barqaror motivlariga ega, o'zini kasbiy faoliyatini to'g'ri baholaydi, kasbiy faoliyat mas'uliyatni zimmasiga olishga tayyor.

O'rta daraja - tibbiy ta'lim talabalari o'quv faoliyatni olib borishlarida kasbiy faoliyat to'g'risida qoniqarli darajada bilimlar bor, Biroq kasbiy faoliyatida ulardan foydalanishda tashqaridan turtki-ustoz, professor-o'qituvchidan yordam kutadi, o'zini o'zi kasbiy faoliyatini baholashda ikkilanadi, kasbiy faoliyat mas'uliyati yetarli emas.

Past daraja - tibbiy ta'lim talabalarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga doir bilimlari past, kasbiy faoliyatda ulardan foydalanishga intilish yo'q, o'zini o'zi adekvat baholash ehtiyoji yo'q, kasbiy faoliyatdagi mas'uliyatni olishga tayyor emas.

Modelning **natijadorlik bloki** kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida kasbiy fazilatlar rivojlanganligining majmuaviy me'zoni va ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi. Bunda me'zon; baholash amalga oshirilishi asosidagi belgi, nimanidir

aniqlash yoki tasniflash, baholash o'ldchovi bo'lib, ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi. Ko'rsatkichlar - kuzatuvchilar qayd qilishi mumkin bo'lgan natijalardir.



2-rasm. Tibbiy ta'lim jarayonida talabalarga dermatovenerologiya fanini o'qitishda kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish modeli²

² Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan

Ko'rsatkich belgilari: diagnostik, ishonchlilik, majmuaviylik hisoblanadi. Majmuaviy me'zon sifatida to'rtta komponent: motivatsion, kognitiv, operatsional, refleksiv bloklarni o'z ichiga olgan kasbiy-ma'naviy fazilatlar majmui belgilandi.

Bunda motivatsion komponent ko'rsatkichlari - shifokorlik kasbiga nisbatan qadriyatli munosabat, kognitiv komponentning ko'rsatkichlari esa kasbiy o'zlashtirish kabi komponentlarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot davomida deramatovenerologiya fanini o'qitishda eng samarali deb topilgan bir qator metodlar ko'rib chiqildi bular: Idrok xaritasi, Geks, Assessment hamda **SNARRS-Model** bo'lib bular o'quv mashg'ulotlarida talabalarni kreativ fikrlarini rivojlantirishda va samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qildi.

